

Qozog‘iston Prezidenti davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga keldi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev 21-dekabr kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

“Toshkent” xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Davlat rahbarlari bir-birlarini samimiy qutlab, qisqa suhbat o‘tkazdilar.

Shundan so‘ng Qozog‘iston yetakchisi «Yangi O‘zbekiston» bog‘iga tashrif buyurib, an‘anaga ko‘ra, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Qasim-Jomart Toqayev majmua me‘moriy yechimlari hamda kompozitsiyasining mazmun-mohiyati va xususiyatlari bilan batafsil tanishdi.



Manba